



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



XORAZM VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKILOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya Vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bунyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 27 660 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 24 424 ta).

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**Faoliyat ko‘rsatayotgan**

**Ro‘yxatdan o‘tgan**



# 1- BO'LIM. XORAZM VILOYATI BO'YICHA KORXONA VA TASHKIOTLARNING SONI


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2023- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

|      |   |       |
|------|---|-------|
| 2023 |  | 6 103 |
| 2022 |  | 5 499 |
| 2021 |  | 4 194 |
| 2020 |  | 4 417 |
| 2019 |  | 4 617 |

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Savdo



Axborot va aloqa



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 604 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha oxirgi uch yil mobaynida yangi tashkil etilgan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 786 taga, xususiy korxonalar - 360 taga ko'paygan.

## Hududlar kesimida

|                |            |       |                |            |       |
|----------------|------------|-------|----------------|------------|-------|
| Urganch sh.    | <b>815</b> | 15,3% | Yangiariq t.   | <b>425</b> | 25,3% |
| Urganch t.     | <b>618</b> | 20,6% | Xiva t.        | <b>386</b> | 20,1% |
| Shovot t.      | <b>573</b> | 32,4% | Xiva sh.       | <b>368</b> | 17,4% |
| Qo'shko'pir t. | <b>558</b> | 25,4% | Xonqa t.       | <b>354</b> | 17,2% |
| Bog'ot t.      | <b>551</b> | 28,0% | Yangibozor t.  | <b>338</b> | 26,1% |
| Gurlan t.      | <b>489</b> | 25,8% | Tuproqqal'a t. | <b>162</b> | 21,7% |
| Hazorasp t.    | <b>466</b> | 27,4% |                |            |       |

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

**Yillar kesimida soni****Yillar kesimida o’sish sur’ati (foizda)****Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- dekabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan 9 203 taga oshganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o’sishi bilan ifodalash mumkin: savdoda – 4 937 tadan 9 445 taga (o’sish 4 508 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 1 614 tadan 2 779 taga (o’sish 1 165 ta), sanoatda – 3 041 tadan 4 177 taga (o’sish 1 136 ta).

**Hududlar kesimida**

|                |       |                |       |
|----------------|-------|----------------|-------|
| Urganch sh.    | 5 311 | Gurlan t.      | 1 896 |
| Urganch t.     | 2 998 | Shovot t.      | 1 770 |
| Qo‘shko‘pir t. | 2 198 | Hazorasp t.    | 1 703 |
| Xiva sh.       | 2 118 | Yangiariq t.   | 1 677 |
| Xonqa t.       | 2 060 | Yangibozor t.  | 1 296 |
| Bog‘ot t.      | 1 967 | Tuproqqal‘a t. | 746   |
| Xiva t.        | 1 920 |                |       |


# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda

## Yillar kesimida soni

|             |              |
|-------------|--------------|
| <b>2023</b> | <b>6 024</b> |
| <b>2022</b> | <b>5 386</b> |
| <b>2021</b> | <b>4 070</b> |
| <b>2020</b> | <b>4 348</b> |
| <b>2019</b> | <b>4 461</b> |

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, yildan-yilga ularning investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2023- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 6 024 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirma va kichik korxonalar - 5 998 tani;
- yirik korxonalar - 26 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


|                |            |       |               |            |       |
|----------------|------------|-------|---------------|------------|-------|
| Urganch sh.    | <b>785</b> | 17,0% | Yangiariq t.  | <b>424</b> | 28,3% |
| Shovot t.      | <b>570</b> | 37,1% | Xiva t.       | <b>381</b> | 22,1% |
| Urganch t.     | <b>611</b> | 22,4% | Xiva sh.      | <b>364</b> | 18,5% |
| Qo‘siko‘pir t. | <b>554</b> | 28,1% | Xonqa t.      | <b>350</b> | 19,0% |
| Bog‘ot t.      | <b>546</b> | 31,3% | Yangibozor t. | <b>336</b> | 29,7% |
| Gurlan t.      | <b>487</b> | 28,9% | Tuproqqa‘t a. | <b>155</b> | 24,8% |
| Hazorasp t.    | <b>461</b> | 31,2% |               |            |       |

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

## Yillar kesimida soni

|             |               |
|-------------|---------------|
| <b>2023</b> | <b>24 560</b> |
| <b>2022</b> | <b>25 634</b> |
| <b>2021</b> | <b>21 438</b> |
| <b>2020</b> | <b>18 606</b> |
| <b>2019</b> | <b>15 398</b> |

## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- dekabr holatiga 24 560 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 159,5 foizni tashkil etdi (9 162 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 38,5 foiz, sanoat – 17,0 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 11,2 foiz, qurilish – 7,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,8 foiz, tashish va saqlash – 4,6 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,2 foiz, boshqa turlari – 10,9 foiz.

## Hududlar kesimida

|                |              |               |              |
|----------------|--------------|---------------|--------------|
| Urganch sh.    | <b>4 621</b> | Gurlan t.     | <b>1 683</b> |
| Urganch t.     | <b>2 732</b> | Shovot t.     | <b>1 538</b> |
| Qo‘shko‘pir t. | <b>1 975</b> | Yangiariq t.  | <b>1 499</b> |
| Xiva sh.       | <b>1 965</b> | Hazorasp t.   | <b>1 477</b> |
| Xonqa t.       | <b>1 840</b> | Yangibozor t. | <b>1 133</b> |
| Bog‘ot t.      | <b>1 746</b> | Tuproqqa‘a t. | <b>625</b>   |
| Xiva t.        | <b>1 726</b> |               |              |


# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda*




## Yillar kesimida soni

|             |   |              |
|-------------|---|--------------|
| <b>2023</b> |  | <b>5 998</b> |
| <b>2022</b> |  | <b>5 367</b> |
| <b>2021</b> |  | <b>4 063</b> |
| <b>2020</b> |  | <b>4 340</b> |
| <b>2019</b> |  | <b>4 451</b> |

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

2023- yil yanvar-noyabr oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 2 021 tadan 2 529 taga (o‘sish 508 taga), tashish va saqlashda – 266 tadan 373 taga (o‘sish 107 taga), qurilishda – 197 tadan 224 taga (o‘sish 27 taga) ko‘paydi.

## Hududlar kesimida


|                |     |       |                |     |       |
|----------------|-----|-------|----------------|-----|-------|
| Urganch sh.    | 785 | 17,2% | Yangiariq t.   | 423 | 28,4% |
| Urganch t.     | 609 | 22,4% | Xiva t.        | 378 | 22,0% |
| Shovot t.      | 570 | 37,2% | Xiva sh.       | 364 | 18,6% |
| Qo‘siko‘pir t. | 553 | 28,1% | Xonqa t.       | 343 | 18,8% |
| Bog‘ot t.      | 545 | 31,4% | Yangibozor t.  | 333 | 29,5% |
| Gurlan t.      | 479 | 28,6% | Tuproqqal‘a t. | 155 | 24,9% |
| Hazorasp t.    | 461 | 31,4% |                |     |       |

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

### Yillar kesimida soni

|             |   |               |
|-------------|---|---------------|
| <b>2023</b> |  | <b>24 424</b> |
| <b>2022</b> |  | <b>25 496</b> |
| <b>2021</b> |  | <b>21 330</b> |
| <b>2020</b> |  | <b>18 504</b> |
| <b>2019</b> |  | <b>15 306</b> |

### Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (18,7 foiz), Urganch tumani (11,1 foiz), Xiva shahri (8,0 foiz), Qo‘shko‘pir (8,1 foiz) va Xonqa (7,5 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


### Hududlar kesimida

|                |              |                |              |
|----------------|--------------|----------------|--------------|
| Urganch sh.    | <b>4 573</b> | Gurlan t.      | <b>1 677</b> |
| Urganch t.     | <b>2 718</b> | Shovot t.      | <b>1 532</b> |
| Qo‘shko‘pir t. | <b>1 969</b> | Yangiariq t.   | <b>1 491</b> |
| Xiva sh.       | <b>1 961</b> | Hazorasp t.    | <b>1 469</b> |
| Xonqa t.       | <b>1 828</b> | Yangibozor t.  | <b>1 128</b> |
| Bog‘ot t.      | <b>1 737</b> | Tuproqqal‘a t. | <b>622</b>   |
| Xiva t.        | <b>1 719</b> |                |              |

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**  
2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**


|                |     |
|----------------|-----|
| Gurlan t.      | 421 |
| Urganch t.     | 332 |
| Qo'shko'pir t. | 308 |
| Xonqa          | 292 |
| Xiva t.        | 254 |
| Yangiariq t.   | 231 |
| Bog'ot t.      | 203 |
| Shovot         | 180 |
| Yangibozor t.  | 167 |
| Tuproqqal'a t. | 108 |
| Hazorasp t.    | 105 |
| Xiva sh.       | 95  |
| Urganch sh.    | 83  |



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

**Baliq ovlash va akvakultura**




**O'rmonchilik va yog'och  
tayyorlash**

**Dehqonchilik va  
chorvachilik, ovchilik va  
bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish**

*2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

|                |            |
|----------------|------------|
| Urganch sh.    | <b>762</b> |
| Urganch t.     | <b>463</b> |
| Qo‘shko‘pir t. | <b>424</b> |
| Xonqa t.       | <b>370</b> |
| Xiva t.        | <b>300</b> |
| Xiva sh.       | <b>300</b> |
| Bog‘ot t.      | <b>265</b> |
| Shovot t.      | <b>259</b> |
| Gurlan t.      | <b>242</b> |
| Hazorasp t.    | <b>227</b> |
| Yangiariq t.   | <b>225</b> |
| Yangibozor t.  | <b>198</b> |
| Tuproqqal‘a t. | <b>142</b> |



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi besh yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish surʼati 137,4 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 15,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,7 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish surʼati 87,4 foiz), 0,5 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish surʼati 104,8 foiz), 1,4 foizini suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish surʼati 92,1 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash (o‘sish surʼati 76,2 foiz) tashkil etgan.




# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

## Hududlar kesimida

|                |            |
|----------------|------------|
| Urganch sh.    | <b>406</b> |
| Xiva t.        | <b>249</b> |
| Urganch t.     | <b>212</b> |
| Xiva sh.       | <b>185</b> |
| Qo‘siko‘pir t. | <b>157</b> |
| Xonqa t.       | <b>118</b> |
| Yangiariq t.   | <b>99</b>  |
| Shovot t.      | <b>91</b>  |
| Bog‘ot t.      | <b>66</b>  |
| Gurlan t.      | <b>61</b>  |
| Hazorasp t.    | <b>61</b>  |
| Yangibozor t.  | <b>55</b>  |
| Tuproqqal'a t. | <b>32</b>  |



Qurilish sohasining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 82,1 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 19,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 25,2 foiz ulushni va 74,7 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

**345**



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

**452**

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**995**

Bino va  
inshootlar qurish




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

|                |              |
|----------------|--------------|
| Urganch sh.    | <b>1 656</b> |
| Urganch t.     | <b>1 071</b> |
| Bog'ot t.      | <b>833</b>   |
| Xiva sh.       | <b>730</b>   |
| Hazorasp t.    | <b>685</b>   |
| Qo'shko'pir t. | <b>699</b>   |
| Shovot t.      | <b>661</b>   |
| Yangiariq t.   | <b>631</b>   |
| Xonqa t.       | <b>592</b>   |
| Gurlan t.      | <b>592</b>   |
| Xiva t.        | <b>585</b>   |
| Yangibozor t.  | <b>474</b>   |
| Tuproqqal'a t. | <b>236</b>   |



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 426 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'naliishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'naliishi 64,9 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 103,3 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'naliishi 23,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 104,0 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'naliishi 11,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 116,0 foizni tashkil etdi.

**1 087**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

**2 231**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


**6 127**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

*2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

|                |            |
|----------------|------------|
| Urganch sh.    | <b>411</b> |
| Xiva sh.       | <b>285</b> |
| Urganch t.     | <b>172</b> |
| Xonqa t.       | <b>103</b> |
| Gurlan t.      | <b>101</b> |
| Shovot         | <b>95</b>  |
| Bog'ot t.      | <b>91</b>  |
| Yangibozor t.  | <b>85</b>  |
| Xiva t.        | <b>83</b>  |
| Qo'shko'pir t. | <b>77</b>  |
| Yangiariq t.   | <b>73</b>  |
| Hazorasp t.    | <b>59</b>  |
| Tuproqqal'a t. | <b>44</b>  |



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 138,9 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,3 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,7 foiz ulushini tashkil etdi.

**240**

**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**

**1 439**


**Oziq- ovqat va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar**



*2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### **Hududlar kesimida**


|                |            |
|----------------|------------|
| Urganch sh.    | <b>116</b> |
| Xiva sh.       | <b>48</b>  |
| Xonqa t.       | <b>36</b>  |
| Urganch t.     | <b>32</b>  |
| Gurlan t.      | <b>26</b>  |
| Qo‘siko‘pir t. | <b>26</b>  |
| Xiva t.        | <b>25</b>  |
| Yangiariq t.   | <b>24</b>  |
| Shovot t.      | <b>22</b>  |
| Bog‘ot t       | <b>18</b>  |
| Yangibozor t.  | <b>10</b>  |
| Hazorasp t.    | <b>9</b>   |
| Tuproqqał'a t. | <b>3</b>   |



2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,3 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,8 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 34,7 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 91,9 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 43,0 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 97,7 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

|                |            |
|----------------|------------|
| Urganch sh.    | <b>215</b> |
| Xiva sh.       | <b>55</b>  |
| Urganch t.     | <b>53</b>  |
| Xonqa t.       | <b>45</b>  |
| Gurlan t.      | <b>41</b>  |
| Xiva t.        | <b>37</b>  |
| Hazorasp t.    | <b>37</b>  |
| Shovot t.      | <b>35</b>  |
| Qo'shko'pir t. | <b>28</b>  |
| Yangiariq      | <b>27</b>  |
| Bog'ot t.      | <b>26</b>  |
| Yangibozor t.  | <b>20</b>  |
| Tuproqqal'a t. | <b>8</b>   |



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi, ya'ni 546 tasi yoki 87,1 foiz ulushi kichik tadbirdorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'naliishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:


- sog'liqni saqlash yo'naliishiga 94,6 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,9 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'naliishidagi korxonalar soni 3,5 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 91,7 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'naliishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 120,0 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida

|                 |            |
|-----------------|------------|
| Urganch sh.     | <b>232</b> |
| Hazorasp t.     | <b>168</b> |
| Urganch t.      | <b>118</b> |
| Xonqa t.        | <b>116</b> |
| Bog‘ot t.       | <b>83</b>  |
| Gurlan t.       | <b>81</b>  |
| Shovot t.       | <b>75</b>  |
| Qo‘sisko‘pir t. | <b>68</b>  |
| Xiva sh.        | <b>63</b>  |
| Xiva t.         | <b>53</b>  |
| Yangiariq t.    | <b>39</b>  |
| Yangibozor t.   | <b>23</b>  |
| Tuproqqał'a t.  | <b>18</b>  |




2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 4,1 foizni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 105,9 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 115,8 foizni;
- pochta va kuryerlik yo‘nalishi 2,5 marta oshdi;
- havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,2 marta oshdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo'yicha umumiylumot  
2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


*2023- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda*

**Yillar kesimida soni**

**Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)**



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas’uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlar qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

### Hududlar kesimida

|                |     |                |     |
|----------------|-----|----------------|-----|
| Urganch sh.    | 549 | Xiva t.        | 266 |
| Qo‘shko‘pir t. | 441 | Xiva sh.       | 238 |
| Hazorasp t.    | 431 | Shovot t.      | 214 |
| Urganch t.     | 418 | Xonqa t.       | 174 |
| Gurlan t.      | 406 | Tuproqqal‘a t. | 142 |
| Yangiariq t.   | 349 | Yangibozor t.  | 142 |
| Bog‘ot t.      | 366 |                |     |


2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 24 560 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 14 206 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich yashash va ovqatlanishda 118,2 foiz, savdoda – 113,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 112,4 foiz, tashish va saqlashda – 109,8 foiz, axborot va aloqada – 107,7 foizni tashkil etdi.


### Hududlar kesimida

|                |       |                |       |
|----------------|-------|----------------|-------|
| Urganch sh.    | 2 667 | Bog'ot t.      | 1 003 |
| Urganch t.     | 1 442 | Xiva t.        | 995   |
| Hazorasp t.    | 1 222 | Xonqa t.       | 808   |
| Qo'shko'pir t. | 1 173 | Shovot t.      | 673   |
| Gurlan t.      | 1 169 | Tuproqqal'a t. | 529   |
| Xiva sh.       | 1 088 | Yangibozor t.  | 404   |
| Yangiariq t.   | 1 033 |                |       |


# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2023- yil yanvar-noyabr oylarida savdoda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 150 taga, sanoatda 47 taga, tashish va saqlashda 27 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

|                |     |                |    |
|----------------|-----|----------------|----|
| Shovot t.      | 260 | Urganch t.     | 62 |
| Yangibozor t.  | 142 | Xiva sh.       | 23 |
| Urganch sh.    | 141 | Hazorasp t.    | 13 |
| Xonqa t.       | 119 | Xiva t.        | 7  |
| Bog‘ot t.      | 95  | Yangiariq t.   | 6  |
| Qo‘shko‘pir t. | 63  | Tuproqqal‘a t. | 1  |
| Gurlan t.      | 63  |                |    |

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,5 foizga ko'paygan.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining 2019- yilning mos davriga nisbatan ko'payishiga tashish va saqlash (120,4 foiz), savdo (120,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalari (106,3 foiz), tumanlar kesimida esa – Shovot (181,6 foiz), Bog'ot (142,8 foiz), Qo'shko'pir (128,7 foiz), Yangibozor (118,0 foiz), Xonqa (112,2 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

### Hududlar kesimida


|                |      |                |     |
|----------------|------|----------------|-----|
| Urganch sh.    | 1242 | Xiva sh.       | 303 |
| Urganch t.     | 624  | Bog'ot t.      | 277 |
| Xonqa t.       | 515  | Xiva t.        | 266 |
| Shovot t.      | 514  | Hazorasp t.    | 101 |
| Yangibozor t.  | 426  | Yangiariq t.   | 88  |
| Gurlan t.      | 368  | Tuproqqal'a t. | 33  |
| Qo'shko'pir t. | 332  |                |     |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.


Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida


|              |     |                |    |
|--------------|-----|----------------|----|
| Urganch t.   | 130 | Xonqa t.       | 57 |
| Xiva t.      | 108 | Yangibozor t.  | 52 |
| Xiva sh.     | 102 | Qo‘shko‘pir t. | 49 |
| Shovot t.    | 96  | Hazorasp t.    | 17 |
| Urganch sh.  | 95  | Gurlan t.      | 17 |
| Bog‘ot t.    | 84  | Tuproqqal‘a t. | 12 |
| Yangiariq t. | 67  |                |    |

2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 2 651 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi: savdoda – 605 tadan 1 951 taga (o’sish 1 346 taga), sanoatda – 625 tadan 1 252 taga (o’sish 627 taga), yashash va ovqatlanishda – 592 tadan 848 taga (o’sish 256 taga) korxonalar sonining o’shishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida

|                |     |                |     |
|----------------|-----|----------------|-----|
| Urganch sh.    | 659 | Yangiariq t.   | 361 |
| Urganch t      | 651 | Shovot t.      | 333 |
| Xiva sh.       | 559 | Yangibozor t.  | 277 |
| Xonqa t.       | 508 | Hazorasp t.    | 140 |
| Qo‘shko‘pir t. | 453 | Gurlan t.      | 126 |
| Bog‘ot t.      | 451 | Tuproqqal'a t. | 55  |
| Xiva t.        | 450 |                |     |

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi 5 yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 0,7 foizga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 136 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 28,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 25,7 foiz), Turkmaniston (ulushi 11,8 foiz), Xitoy (ulushi 6,6 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 3,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

|             |    |                 |   |
|-------------|----|-----------------|---|
| Urganch sh. | 57 | Yangibozor t.   | 5 |
| Urganch t.  | 11 | Tuproqqa'l'a t. | 5 |
| Xiva t.     | 9  | Yangiariq t.    | 5 |
| Xiva sh.    | 9  | Hazorasp t.     | 5 |
| Xonqa t.    | 9  | Bog‘ot t.       | 5 |
| Gurlan t.   | 7  | Qo‘shko‘pir t.  | 4 |
| Shovot t.   | 5  |                 |   |

2023- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda

|   |                        |   |
|---|------------------------|---|
|    | Rossiya                | 8 |
|    | Turkiya                | 6 |
|    | Turkmaniston           | 6 |
|    | Bolgariya Respublikasi | 1 |
|    | Janubiy Koreya         | 1 |
|   | Xitoy                  | 1 |
|  | Hindiston              | 1 |
|  | Malayziya              | 1 |

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 73 tasi qo‘shma korxonalar, 63 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

**chet el korxonalar**

**qo‘shma korxonalar**

**29**

Urganch sh.

**28**

**4**

Xiva sh.

**5**

**2**

Bog‘ot t.

**3**

**3**

Gurlan t.

**4**

**2**

Qo‘shko‘pir t.

**2**

**6**

Urganch t.

**5**

**3**

Hazorasp t.

**2**

**3**

Tuproqqał'a t.

**2**

**4**

Xonqa t.

**5**

**3**

Xiva t.

**6**

**1**

Shovot t.

**4**

**2**

Yangiariq t.

**3**

**1**

Yangibozor t.

**4**

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
bo‘limi  
Tel.: (62) 22-4-65-11